

JAHON ANIMATSION FILMLARIDA MUMTOZ ASARLARNING TALQINI



Murodjonova Gulchiroy

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn institutining

“Multfilm va kompyuter multiplikatsiyasi”

yo‘nalishi II bosqich magistranti

kurbanaliyevagulchiroy@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18785481>

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon animatsion kinosida mumtoz adabiy asarlarning turli talqinlari tahlil qilingan. Maqolada G‘arb va Sharq mumtoz adabiyotiga asoslangan mashhur animatsion filmlar misolida klassik adabiy g‘oyalarning zamonaviy animatsiyaga qanday moslashtirilgani o‘rganiladi. Muallif muammoni nazariy va tahliliy jihatdan yoritarkan, talqin va asl manba o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, madaniy kontekst va axloqiy qadriyatlarning saqlanishiga alohida e‘tibor qaratadi. Shuningdek, maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining xalqaro animatsiya maydonidagi salohiyati haqida ham mulohazalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: mumtoz adabiyot, animatsiya, adabiy talqin, Shekspir, Sharq klassikasi, Disney, Ghibli, Aladdin, axloqiy qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье анализируются различные интерпретации классических литературных произведений в мировом анимационном кинематографе. Рассматривается адаптация классических литературных идей к современной анимации на примере популярных анимационных фильмов, основанных на западной и восточной классической литературе. Автор, теоретически и аналитически рассматривая проблему, уделяет особое внимание взаимосвязи между интерпретацией и первоисточником, культурному контексту и сохранению моральных ценностей. В статье также обсуждается потенциал узбекской классической литературы в международной анимационной сфере.

Ключевые слова: классическая литература, анимация, литературная интерпретация, Шекспир, восточная классика, Дисней, Гибли, Аладдин, моральные ценности.

Abstract. This article analyzes various interpretations of classical literary works in world animated cinema. The article examines how classical literary ideas are adapted to modern animation using the example of popular animated films based on Western and Eastern classical literature. The author, while covering the problem theoretically and analytically, pays special attention to the relationship between interpretation and the original source, cultural context, and the preservation of moral values. The article also discusses the potential of Uzbek classical literature in the international animation field.

Keywords: classical literature, animation, literary interpretation, Shakespeare, Eastern classics, Disney, Ghibli, Aladdin, moral values.

Kirish. Rivojlangan, axborot zamonimizda televideniya orqali son-sanoqsiz, rang-barang videolavhalar, film, serial hamda turli xil ko‘rsatuvlar namoyish etib kelinmoqda. Shu jumladan, yosh tomoshabin bolajonlarni ham unutmagan holda, har bir chegaralangan yoshdagi tomoshabin

uchun multfilmlar mavjud. Demak animatsiya bugungi kunda nafaqat bolalar uchun mo'ljallangan ko'ngilochar vosita yoki vaqtni o'tkazish uchun bir ermak bo'la qolmay, tarbiyaviy, ma'naviy va madaniy g'oyalarni yetkazish vositasi bo'lishi lozimdir. Ushbu sohaning eng diqqatga sazovor jihatlaridan biri — bu uning mumtoz adabiy asarlardan ilhom olib, zamonaviy shaklda qayta talqin qilinishida namoyon bo'ladi.

Mumtoz adabiyot inson tafakkuri va ma'naviy merosining yuksak namoyonlaridan biri bo'lib, uning asosiy g'oyalari, obraz va voqealarini animatsion filmlar orqali yangi avlodga yetkazish dolzarb masaladir. Hozirgi kunda bu jarayon turli studiyalar — xususan, Disney, Studio Ghibli va boshqalar tomonidan faol amalga oshirilmoqda.

Animatsiya uchun adabiy manbalar sifatida mumtoz asarlar

Animatsiya yaratishda adbiy asarlar, ayniqsa jahon klassik durdonalari dramatism, konflikt, obrazlar murakkabligi va falsafiy ma'no yuzasidan ushbu soha uchun bebaho manbaadir. Masalan, Shekspir asarlari nafaqat sahnaviy, balki ekranli adaptatsiyalarda ham o'z o'rnini topgan. Uning "Hamlet", "Romeo va Julyetta" kabi asarlari har xil animatsion ko'rinishlarda yanada qiziqarli va syujetiga boyitilgan.

"The Lion King" – "Hamlet" talqini

Butun dunyo har bir katta-kichik yoshdagi tomoshabinga tanish va sevimli bo'lgan "The Lion King" filmidagi bosh g'oya otasidan ayrilgan qahramonning ichki kechinmalari va adolatni tiklash urinishlariga asoslangan bo'lib, bu Shekspirning "Hamlet" asari bilan bevosita bog'liq. Simba obrazi orqali yosh auditoriyaga mas'uliyat, oilaga sadoqat va jasorat kabi qadriyatlar tushuntiriladi.



"Beauty and the Beast" – insoniylikning animatsion ifodasi


Fransuz xalq og'zaki ijodiga asoslangan ushbu film orqali tashqi ko'rinish emas, balki qalb go'zalligi haqidagi g'oya keng targ'ib etilgan. Bu filmda ham ko'pgina klassik adabiy uslub va motivlar mavjud.



Sharq mumtoz asarlarining jahon animatsiyasidagi talqini

Animatsiya uchun o'zbek va jahon mumtoz asarlari boy xazina hisoblanadi. "Lison ut-tayr" (qushlar safari), "Xamza" dostoni, xalq ertaklari, "Kalila va Dimna" (hayvonlar ishtirokidagi ibratli hikoyalar), "Alpomish" kabi asarlar va Shekspir dramalari dinamik syujetlari multfilm yaratish uchun ajoyib asarlar hisoblanadi. Ular boy tasavvur va o'zbek milliy kaloritni namoyish etish imkonini beradi.

Sharq adabiyotida mavjud bo'lgan chuqur ma'noli asarlar — "1001 kecha", "Layli va Majnun", "Alpomish", "Rustam va Suhrob" — hali jahon animatsiyasida to'liq yoritilmagan. G'arb studiyalari asosan "Aladdin" va "Sinbad" singari ashyoiy, folklor shakllarda talqin qilgan. Ammo ushbu tasvirlar ko'pincha asl mazmundan yiroqlashib ketgan. Masalan, "Aladdin" filmi Disney versiyasida G'arb madaniyatiga moslashtirilgan, sharqona fikrlash tarzi va axloqiy omillar esa yengillashtirilgan.



Asl manba va talqin o'rtasidagi muvozanat

Adabiy asarni ekranga moslashtirish jarayonida asosiy g'oya, kontekst va personajlar tabiati o'zgarishga uchrashi mumkin. Bu ba'zan ijodiy erkinlikni anglatadi, ba'zi hollarda esa asl manbaning ma'no jihatdan yo'qolishiga olib keladi. Masalan, tragediyani xursand va yorug' holatda yakunlash, xarakterlarning soddalashtirilishi yoki qahramonlarning maqsadini o'zgartirish filmni auditoriyaga moslashtirishga qaratilgan bo'lsa-da, adabiy mazmunga zarar yetkazishi mumkin.

O'zbek mumtoz adabiyoti asosida animatsiya yaratish imkoniyatlari

"O'zbek animatsion san'atining rivojlanishi bu sohada kreativ va tajribali dramaturglarning yetishib chiqishi bilan bog'liq. Hozirda bu og'riqli masala, lekin yoshlar yetishib chiqmoqda, ularga ko'proq sharoit yaratilishi, moddiy va ma'naviy tomondan qo'llab quvvatlanishi lozim" deydi Astir animation studiyasi direktori animator Abdulatif Haydarov. Har bir multfilm bolalarni tezda jalb qiladigan va rang-barang bo'lishi lozim. Qahramonlar tashqi ko'rinishi yorqin va chiroyli bo'lishi kerak.

Bugungi kunda o'zbek mumtoz adabiyoti jahon madaniyatida munosib o'ringa ega bo'lishi uchun uning zamonaviy shakllarda, jumladan, animatsiya orqali taqdim etilishi muhim. O'zbek mumtoz adabiyoti asoschisi Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida keltirilgan hikoya asosida "Xasis baqqol" multfilmi ishlandi. Qahramonlar shakl-shamoyil Sharq miniyatura san'ati, xususan Kamoliddin Behzodning ijod na'munalari asosida yaratilgan. H"Alpomish", "Zafarnoma", "Qutadg'u bilig" kabi asarlar tarixiy, falsafiy va tarbiyaviy jihatdan juda boy bo'lib, ular asosida yuqori darajadagi animatsion filmlar yaratilishi mumkin. Bu nafaqat milliy merosni saqlash, balki uni jahon sahnasiga olib chiqish imkonini ham beradi.



Xulosa. Mumtoz adabiy asarlarning animatsion talqini — bu faqat film yaratish emas, balki madaniy muloqot, ma'naviy qadriyatlarning yangi avlodga yetkazilishi, tarix bilan zamonaviylik o'rtasidagi bog'lanishni tiklashdir. Jahon animatsiyasi bu borada ulkan yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, ayrim kamchiliklar — madaniy kontekstning yo'qolishi, soddalashtirish orqali ma'noning susayishi — hali-hanuz mavjud. O'zbek animatsiyasida ham ushbu tajribalarni inobatga olgan holda, o'z mumtoz adabiyoti asosida yangicha, kreativ loyihalarni amalga oshirish orqali milliy ma'naviyatni nafaqat saqlash, balki dunyoga taqdim etish mumkin. Bu jarayonni rivojlantirish uchun ta'lim, kino industriyasi va davlat siyosati o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

<https://uz.wikipedia.org/wiki/>

<https://www.google.com/search?q=>

<https://ziyouz.uz>

<https://uz.sputniknews.uz>